



Vebsayt: <https://involta.uz/>

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI JINOYATLAR

G`apparova Sevara Xikmatulla qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning kelib chiqishi, ularning turlari, jinoiy – huquqiy tavsifi aks ettirilib, ularni kvalifikatsiya qilish masalari hal qilinadi hamda bu kabi jinoyatlarning oldini olishga doir huquqiy va tashkiliy – texnik maslahatlar beriladi.

Kalit so`zlar: O`g`irlik, kiber o`g`rilar, xaker, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar va ularning turlari, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning obyekti, obyektiv tomoni, subyektiv tomoni va subyekti.

Zamonaviy dunyo shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Bu esa fan va texnika sohasidagi yutuqlar kundalik ijtimoiy hayotimizga yanada qulay imkoniyatlarni talqin etishi bilan bog`liqdir. Biroq shu kabi afzalliklar va qulayliklar bilan bir qatorda, ayrim salbiy holatlar ham yuzaga kelmoqda. Hammamizga ma`lumki, o`g`irlik degan axloqiy qoidalarga zid bo`lgan salbiy tushuncha mavjuddir. O`g`irlik bu – o`zganing mulkini yashirin ravishda talon – taroj qilish demakdir. Ba`zan eshitib qolishimiz mumkin qandaydir bankning o`marilganligi – yu, do`konning tunaganligini kabi kabix hodisalar haqida. Haqiqatdan ham o`g`irlik butun jamiyatga katta ziyon olib keladigan yomon illatlar qatoriga kiradi. Hayotimizda shunday

o`g`irliklar ham borki, u odatdagi o`g`irliklardan butunlay farq qiladi. Bunday o`g`irliklarni juda ham aqlli, chaqqon shaxslar amalga oshirishi bilan birga, ular o`ta darajada ayyor bo`lishadilar. Bu kabi o`g`irilarni, ularning bosgan izlarini ham aniqlash oddiy o`g`irilarni aniqlashga qaraganda 10-20 barobar qiyin bo`lsada, ular yetkazgan zararni hisoblash osondir. Yana bir qiziq tomoni shundaki, ular hech qachon jamoa bo`lib harakatlanmaydi. O`z faoliyatini amalga oshirishda yakka – yakka ishga kirishib, keyinchalik o`g`irlik maydoniga kirgandagina o`z-o`zidan ko`payishi mumkin. O`zgalarning “Uy”lariga ruxsatsiz kirib olib, kezib yuradilar va har doim qandaydir ziyon yetkazmasdan chiqib ketmaydi. Bunday o`g`irilarni internet dunyosida kiber o`g`irilar deb ataydi. Kiber o`g`irilar – kompyuter viruslari va xakerlar bo`lib, kompyuter xotirasiga kirib o`zlarining qabix niyatlarini amalga oshiradilar. Kiber o`g`irlikni sodir etayotgan shaxslarni xaker deb atalib, “xaker” so`zi ingliz tilidan olingan bo`lib, “Hack” –yorib tashlash, chopish, buzish degan ma`noni anglatadi. Xaker o`zi kim? Ma`lumki, har qanday sohaning kuchli mutaxassisi bo`lgan inson yaxshi xususiyatlar ega deb bo`lmaydi, xalqimizda bir naql bor “Olim bo`lsang, olam seniki”, biroq bu egallagan bilimlarini insoniyat manfaatiga sarflamay, balki o`z manfaatlari yo`lida salbiy yo`llarni izlaydiganlar haqida ham “Olim bo`lma, odam bo`l” – degan hikmatli so`zlar mavjud.

Afsuski, jahon miqyosida axborot texnologiyalari qanchalik rivojlanib borgan sayin, professional xakerlar soni ham shunchalik ko`payib bormoqda. Kompyuter olamidagi foydalanuvchilarning 80% (foiz)i xakerlarni – jinoyatchilar deb hisoblaydi. Axborot texnologiyalarining doimiy rivojlanib borishi va internetning paydo bo`lishi natijasida “axborot texnologiyari sohasidagi jinoyatlar” degan tushuncha kirib keldi. Bu sohadagi jinoyatlar ikki xil ko`rinishda sodir etilishi mumkin. Ular kompyuter yordamida bo`lsa kompyuter jinoyatlar deb, agar internet orqali sodir etilsa kiberjinoyatchilik deb yuritiladi. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyat – kompyuter va ma`lumotlarni qayta ishlash tizimlaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoiy qilmish hisoblanadi. Albatta, bu qilmish uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning ayrim turlarini quyidagilarda ko`rish mumkin:

- Virusli dasturiy ta`minotni tarqatish;

- Foydalanuvchining maxfiy ma`lumotlarini o`g`irlash;
- Boshqa odamlarning intellektual faoliyat maxsulotlarini o`g`irlash;
- Ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarning akkauntlarini buzish;
- Yolg`on ma`lumot tarqatish, to`xmat qilish;
- Millarlararo nizo va dinlararo adovat qo`zg`atish;
- Bank plastik kartalari (karta rekvizitlari) bilan noqonuniy operatsiyalar;
- Qimmatli qog`ozlar bozoridagi internet – firibgarlik;
- Internetdagi moliyaviy piramidalar;
- Mobil aloqa bilan bog`liq jinoyatlar;
- Elektron tijorat sohasidagi boshqa jinoyatlar.¹

Ko`pchilik hollarda bu sohadagi jinoyatlar haqida huquqiy bilimga ega bo`lmaslik va kompyuter huquqbuzarliklariga uchragan fuqarolarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etmasliklari ham jinoyatlarni fosh etishda murakkablikni keltirib chiqaradi. Shu o`rinda rossiyalik olim A.V.Sorokinning quyidagi fikrlarini keltirib o`tish joiz, “Axborot ham boshqa jinoyatlarni sodir etishda vosita hisoblanadi deb qabul qilish “kompyuter jinoyatlari” tushunchasining doirasini haddan tashqari kengaytirishda hamda qonun chiqaruvchi organning ham, huquqni qo`llovchining ham ishini murakkablashtiradi”.²

Bu kabi holatlarni inobatga olgan holda O`zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish va ma`lumotlarni uzatish sohasidagi qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida”gi 2007-yil 25-dekabrda qonunida kompyuter tizimlaridan foydalanish bilan bog`liq xavfli qilmishlar jinoyat deb belgilandi hamda amaldagi Jinoyat kodeksi “Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” deb nomlangan XX¹ bob bilan to`ldirildi. Maskur bob Jinoyat kodeksi maxsus qismining “Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar” deb nomlangan oltinchi bobiga

¹ <http://naveconomy.uz>

² Сорокин А.В. Компьютерные преступления: уголовно-правовая характеристика, методика и практика раскрытия и расследования. Ресурс Интернет: http://kurgan.unets.ru/-procur/my_page.htm, 1999.

kiritilgan bo`lib, quyidagi moddalarni o`z ichiga oladi:

- 278¹-modda. Axborotlashtirish qoidalarini buzish;
- 278²-modda. Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish;
- 278³-modda. Kompyuter tizimidan, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o`tkazish maqsadini ko`zlab tayyorlash yoxud o`tkazish va tarqatish;
- 278⁴-modda. Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish;
- 278⁵-modda. Kompyuter sabotaji;
- 278⁶-modda. Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish;
- 278⁷-modda. Telekommunikatsiya tarmog`idan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibiga alohida e`tibor berish lozim. Ushbu jinoyatning **obyekti** ayrim qarashlarga ko`ra, axborot texnologiyalaridan qonuniy va xavfsiz foydalanish borasidagi ijtimoiy munosabatlar bo`lsa, **obyektiv tomoni** harakat yoki harakatsizlik orqali sodir etiladi. Bunga misol sifatida, JK 278¹-modda Axborotlashtirish qoidalarini buzish jinoyatining obyektiv tomoni belgilangan himoya choralarini ko`rmagan holda axborot tizimlari, ma`lumotlar bazalari va banklarini, axborotga ishlov berish hamda uni uzatish tizimlarini yaratish, joriy etish va ulardan foydalanish hamda axborot tizimlaridan ruxsat bilan foydalanish natijasida fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko`p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishida aks etsa, JK 278² - moddasida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni axborotning yo`q qilib yuborilishi, to`sib qo`yilishi, modifikatsiyalashtirilishi, undan nusxa ko`chirilishi yoxud uning qo`lga kiritilishiga, elektron hisoblash mashinalari, elektron hisoblash mashinalari tizimi yoki ularning tarmoqlari ishining buzilishiga sabab bo`lgan kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish bilan tavsiflanadi. Maskur jinoyatning **subyektiv tomoniga** kelsak, u aybning to`g`ri yoki egri qasd shakli bilan tavsiflanadi. Faqat yuqorida keltirilgan jinoyatlardan biri, ya`ni axborotlashtirish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilovchi JK 278¹-moddasidagi jinoyat ham qasddan, ham ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin. qonun

chiqaruvchi tomonidan JKning ikkita jinoyati uchun, 278³ va 278⁶ – moddalarida jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida maqsad belgilangan. Qolganlarida esa motiv va maqsad zaruriy belgi sifatida ko`rsatilmagan, lekin ularning belgilanisi jazoni individuallashtirish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu jinoyatlar g`arazg`oylik, bezorilik maqsadida, o`ch olish niyatida. Siyosiy va boshqa manfaatlar motivida sodir etiladi.

Obyektiv va subyektiv belgilarning tahlilidan kelib chiqib, huquqshunos olimlar tomonidan maskur jinoyatlarga quyidagicha ta`rif berilgan: “Kompyuter axborotlaridan huquqiy va xavfsiz foydalanishdagi ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazish yoxud zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaruvchi, aybli, jinoiy jazoga sazovor ijtimoiy xavfli qilmish axborot texnologiyali sohasidagi jinoyatlar deyiladi”³

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning **subyekti** aqli raso, 16 yoshga to`lgan, axborotlarni qo`riqlash majburiyatiga ega yoki kompyuter axborotlariga qonunga xilof ravishda kirgan shaxslar hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari sohasida sodir etilayotgan jinoyatlardan internet foydalanuvchilarini sodir etilishi mumkin bo`lgan noqonuniy huquqbuzarliklardan himoya qilish maqsadida ayrim tavsiyalar berilgan bo`lib, ularga: xavfsizlikka javob beradigan yangilanishlar o`rnatilgan, boshqa dasturiy ta`minotning joriy versiyalariga ega bo`lgan operatsion tizimdan foydalanish, saytlardan foydalanganda ularning tashqi ko`rinishiga, veb-manzillariga e`tibor berish kerakligi, shaxsiy ma`lumotlarni faqat xavfsiz protokollardan foydalanadigan veb-saytlarga kiritish zarurligi, juda oson va topish yengil bo`lgan parollardan foydalanmaslik va shu kabi ehtiyotkorlik choralarini ko`rgan holda foydalanish muhimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta`kidlash joizki, axborot texnologiyalari sohasida sodir etilayotgan jinoyatlardan fuqarolarni himoya qilish yoki ularni sodir etilishining oldini olish muhim masaladir. Fuqarolar o`rtasida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlardan himoyalanihning eng yaxshi usuli – bu zamonaviy tahdidlardan habardor bo`lishdir, Shu bois, bunday tahdidlar to`g`risida ma`lumotlarni o`rganish, tarqatish va targ`ibot – tashviqot ishlarini olib borish zarur. Zero, barchamizning xavfsizligimiz o`z qo`limizdadir.

³ **Kabulov R.K., Abduraxmonov E.S. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar: O`quv qo`llanma. – T.: O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009. – 15 b.**

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1. <http://naveconomy.uz>
2. Сорокин А.В. Компьютерные преступления: уголовно-правовая характеристика, методика и практика раскрытия и расследования. Ресурс Интернет: [//http://kurgan.unets.ru/-procur/my_page.htm](http://kurgan.unets.ru/-procur/my_page.htm), 1999.
3. Kabulov R.K., Abduraxmonov E.S. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar: O`quv qo`llanma. – T.: O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009. – 15 b.